



MULOQOT JARAYONIDA INSON KECHINMALARINI IFODALASHDA NOVERBAL VOSITALARNING AHAMIYATI

Abduqodirova Lobar Shavkatovna,

Alfraganus universiteti o'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi I bosqich magistranti

ORCID: 0009-0008-2928-8550

Annotatsiya: Muloqot jarayonida inson hissiyotlarini namoyon etishda nonverbal vositalar, ya'ni imo-ishora, mimika, tana harakatlari, intonatsiya, pauza, kulgi, tabassum, ko'z qarashlari muhim ahamiyatga ega. Nonverbal vositalar orqali yuzaga chiqadigan har qanday nutqning yuqori ta'sir kuchiga ega bo'lishi, shuningdek, tilning ishtirokisiz muloqot shakli nafaqat tilshunoslik, balki boshqa sohalar doirasida ham ko'plab muammolarni hal qilish mumkinligiga turli misollar keltirilgan. Bundan tashqari, badiiy tasvirda paralingvistik vositalar verbal vositalar orqali ifodalanishi misollar asosida yoritildi.

Kalit so'zlar: nonverbal vosita, paralingvistika, tana tili va gavda holati, proksemika, ko'z va yuz nigohlari, artifaktlar va badiiy tasvirda nonverbal vositalarning ahamiyati.

KIRISH

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muloqotning juda katta qismini nonverbal aloqa tashkil etadi. Biz har kuni minglab nonverbal belgi va harakatlarga, shu jumladan, gavda holati, yuz (mimika) va ko'z ifodasi, imo-ishoralar hamda intonatsiyaning turli darajalaridan o'zimiz bilmagan holda juda ko'p foydalanamiz. Til – muloqot vositasi. Ammo uning ishtirokisiz ham muloqotga kirishish mumkinligini ko'rishimiz mumkin. Muomala qilish uchun xizmat qilish tilning eng muhim funksiyasi bo'lib, insonlar til orqali bir-birlarini tushunadilar, aloqa qiladilar, axborot almashadilar hamda jamiyatda kishilar bir-birlariga til yordamida ta'sir etadilar. U his-hayajon, istak, ruhiy kechinmalarni izhor etish vositasi ham hisoblanadi. Shu orqali tilning ekspressiv-emotsional

funksiyasi yuzaga chiqadi. Muloqotning yana bir jihati munosabatga kirishuvchilarning o'zaro birgalikdagi harakati — nutq jarayonida faqat so'zlar bilan emas, balki harakatlari bilan ham fikr ifodalashdan iborat.

Nonverbal muloqot va xulq-atvor to'g'risidagi ilmiy izlanishlar 1872-yilda Charlz Darvinning «Insonlar va hayvonlarda emotsiyalar ifodasi» nomli asarining nashri bilan boshlandi. O'sha vaqtdan buyon so'zlessiz muloqot va xatti-harakatlarning turlari, ta'siri va ularning ifoda etilishi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borildi.

MATERIAL VA METOD

Jahon tilshunosligida paralingvistik vositalar tadqiqi bo'yicha ahamiyatli izlanishlar o'tgan asrning ikkinchi yarmidan boshlab ko'zga tashlanadi. Jumladan, T.M.

Nikolayeva, B.A. Uspenskiy, G.V. Kolshanskiy, I.N. Gorelov, G.E. Kreydlin, A.Garkavets, L.S. Vigotskiy, A.A. Reformatskiy, M.L. Butovskaya, E.G. Kulikova, I.A. Kuznetsov, I.A. Golovanova, I.A. Krim kabi olimlarning tadqiqotlarida noverbal vositalarning turli aspektlarda yoritilganini ko'rish mumkin.

O'zbek tilshunosligida ham paralingvistik vositalar yuzasidan bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Xususan, A.Nurmonov, M.Saidxonov, S.Mo'minov, Sh.Iskandarova, A.Aripova, Z.Akbarova, Q.Rasulov, A.Haydarov, G.Toirova, Q.Kaxarov, X.Ismoilov, B.Axmedov, M.Qurbanovning tadqiqotlarini ko'rsatish mumkin. O'zbek tilshunosligida paralingvistik vositalar tadqiqi A.Nurmonovning «O'zbek tilining paralingvistik vositalari» nomli risolasida ko'zga tashlanadi. Shuningdek, paralingvistik vositalarning monografik planda o'rganilishi M.Saidxonovning «Noverbal vositalar va o'zbek tilida ularning ifodalanishi» nomli nomzodlik ishida aks etgan. S.Mo'minov «O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari» deb nomlangan ilmiy ishida paralingvistik vositalarning genderologik xususiyatlari bo'yicha tadqiqot olib borib, erkak va ayollar foydalanadigan noverbal vositalar haqida qiziqarli ma'lumotlar beradi. Genderologik aspektida paralingvistik vositalarni tadqiq qilish B.Axmedovning «Paralingvistik vositalarning genderologik va pragmatik tadqiqi» nomli dissertatsiyasida ham shu mavzuga kengroq va chuqur tahlil ostida qaralgan, natijada o'zbek ayollariga tegishli bo'lgan mimikalar, o'zbek erkaklari muntazam foydalanadigan xatti-harakatlar haqida so'z yuritilgan.

Noverbal vositalar tasnifi bo'yicha ingliz tilshunoslari orasida ham turli nazariyalar mavjud. Xususan, britaniyalik psixolog M.Argayl noverbal muloqot komponentlarini quyidagi guruhlariga ajratadi: 1) tana muloqoti; 2) muloqot maydoni; 3) gavda joylashuvi; 4) tashqi ko'rinish; 5) yuz ifodalari va imo- ishoralar; 6) nigoh; 7) nutq muddati; 8) ovoz ohangi; 9) nutqdagi xatolik; 10) talaffuz.

AQSHning noverbal vositalar bo'yicha taniqli tadqiqotchisi M.Knapp quyidagi tasnifni keltirgan: 1. Jismoniy harakatlar. 2. Ko'z harakatlari. 3. Teginish harakatlari. 4. Tevarak-atrof faktorlari.

Amerikalik psixologlar P.Ekman va V.Frizen tasnifiga ko'ra, og'zaki bo'lmagan vositalar quyidagi turlarga bo'linadi:

1. *Timsollar – tushunchalar (ma'nolar) va mavzularni yetkazishga qodir imo-ishoralar. Ular so'zga ekvivalent bo'la oladi.*

2. *Illyustratorlar – ifodalangan narsani to'ldiradigan harakatlar.*

3. *Regulyatorlar – og'zaki ifodalangan holatlarni tartibga solishga, boshqarishga yordam beradigan harakatlar.*

4. *Affektivlar – holatni ifodalovchi noverbal vositalar.*

5. *Adapterlar – o'z-o'zini parvarish qilishga qaratilgan harakatlar.*

Noverbal aloqa deganda nima tushuniladi? Noverbal aloqa — bu og'zaki va yozma ravishda so'zlardan foydalanmasdan, xabarlarini yuborish va qabul qilish jarayoni. Noverbal muloqot til, tovush nutqining qo'llanilishiga asoslanmagan bo'lib, bu mimika, imo- ishoralar, pantomimika, sensor yoki tana orqali aloqalar vositasidagi muloqotdir. Bunda axborot so'zlashish orqali emas, balki fikrlar va hissiyotlarni turli harakatlar orqali ifodalash bilan namoyon bo'ladi. Amerikalik olim Megrabyan formulasiga ko'ra, birinchi marta ko'rishib turgan suhbatdoshlardagi taassurotlarning ijobiy bo'lishiga gapirgan gaplari 7 %, paralingvistik omillar 38 % va noverbal harkatlar 58 % gacha ta'sir qilarkan.

Muloqot qanday tarzda kechishidan qat'i nazar, uning mazmunli va ta'sirli bo'lishi nafaqat so'zlovchiga, balki tinglovchiga ham bog'liqdir. Muloqot vaqtida so'zlashish qoidalariga rioya qilish, aytilayotgan gaplarga e'tiborli bo'lish, suhbat davomida bir-birini yaxshi tinglash va tushuna olish muloqotni yanada chiroyli kechishiga yordam beradi. Biz foydalanadigan verbal va noverbal aloqa hayotning barcha jabhalarida o'ta muhim omil hisoblanadi va u hech qachon yo'q bo'lib ketmaydi. Xo'sh, noverbal vositalar nimalarni o'z ichiga oladi?

Yuz ifodalari

Noverbal muloqotning eng katta qismi yuz ifodalari orqali amalga oshiriladi, desak adashmagan bo'lamiz. Chunki hissiyot va kechinmalarimizning aksariyati yuzimizdan zohir bo'ladi. Tanamizdagi og'riq, ko'nglimizdan kechayotgan hislar bevosita ruhiyatimizga chambarchas bog'liq. Yuz ifodalari esa aynan ruhiyatimizdan so'zlaydi: jahl chiqsa qizarish, orzu qilsa entikish, xursand bo'lsa tabassum qilish, norozi bo'lsa qoshlarning chimirilishi va yana bir qancha holatlar bunga misol bo'la oladi. Birgina tabassum yoki qovoq solish bilan qanchadan qancha ma'lumot yetkazib berilishi mumkin. Kishi yuz ifodasini, odatda, uning so'zlarini eshitishdan ancha oldin payqaymiz.

Noverbal muloqot va xatti-harakatlar madaniyatlar o'rtasida keskin farq qilishiga qaramasdan, quvonch, qayg'u, jahl va qo'rquvni ifodalovchi yuz ifodalari dunyoning turli burchaklarida yashovchi insonlar uchun bir xildir.

Imo-ishoralar

Biror maqsadga yo'nalgan belgi va harakatlar so'zgarsiz ma'no yetkazishning muhim usulidir. Eng sodda imo-ishoralar qo'l silkitish, qo'l bilan ishora qilish hamda sonli miqdorlarni ko'rsatishda barmoqlardan foydalanish bo'lib, boshqa imo-ishoralar ixtiyoriy yoki ma'lum madaniyatga tegishli bo'lishi mumkin.

Suhbatdoshingiz so'zlayotgan mavzu sizga zerikarli ekanligini soatingizga qarab qo'yishingiz yoki esnab olishingiz, diqqatingizning bo'linishi, atrofga alanglashingiz orqali bildirishingiz – signal qilishingiz mumkin.

Paralingvistika

Tilshunos Golub. I.B. nutq ta'sirchanligini shakllantirishda paralingvistik vositalarning o'rnini tilning tasviriy vositalari bilan bir qatarga qo'yadi. Uning fikricha, paralingvistika fikr (tushuncha)ning dirijyoridir. Haqiqatan ham shunday, chunki har qanday shaxs o'z fikrini (nutqini) bu vositalar yordamida oson hamda erkin ifodalay oladi.

Paralingvistika biz ishlatadigan tildan farq qiluvchi ovoqli aloqa. Bunda ovozning balandligi, ohangi va uning o'zgaruvchanligi gapning ma'nosiga ta'sirini hisobga olish muhim. Baland ovozda aytilgan so'zlar ma'qullash va ishtiyoqni yoki ayni so'zlarning ikkilanish ovoz tonida aytilishi norozilik va qiziqishning sustligini ifodalashi mumkin.

Tana tili va gavda holati

Tana tili bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar 1970-yildan buyon sezilarli darajada o'sdi, ayniqsa, Julius Festning «Tana tili» kitobi nashridan so'ng, ommaviy axborot vositalari insonlarning o'z-o'zini himoyalash gavda holati, qo'l va oyoqlarni qovushtirish vaziyatlarini tahlil qilishga alohida urg'u berdi.

Ushbu noverbal xatti-harakatlar his-tuyg'ular va munosabatlarni ko'rsatishi mumkin bo'lsa-da, tadqiqotlar tana tili biz ilgari ishonganlarimizdan ko'ra ancha nozik va shu bilan birga, aniqlik darajasi pastroq hisoblanadi.

Proksemika

Proksemika og'zaki bo'lmagan muloqotni o'rganishda bir nechta kichik toifalardan biridir, jumladan haptika (tegish), kinesika (tana harakati), vokalika (paratil) va xronemiya (vaqt tuzilishi) ham shu toifaga misol bo'ladi.

1963-yilda ushbu atamani ishlab chiqqan madaniy antropolog Edvard T. Xoll proksemikani «Odamlarning bo'shliqdan madaniyatning maxsus ishlab chiqilishi sifatida foydalanishi haqidagi o'zaro bog'liq kuzatuvlari va nazariyalari» deb ta'riflagan. Proksemika kuzatuv orqali ochiladigan va madaniyatning kuchli ta'siri ostida bo'lgan shaxslararo muloqotning yashirin komponenti bo'lib qolmoqda.

Proksemika bu suhbatdosh bilan bo'ladigan oraliq masofa. Odamlar ko'pincha «shaxsiy makon»ga bo'lgan ehtiyojlariga murojaat etishadi, bu ham noverbal aloqaning muhim turidir.

Masalan, odamlar bilan tasodifiy suhbat chog'ida zarur bo'lgan shaxsiy maydon hajmi odatda 46 sm dan 1 metrgacha farq qiladi. Boshqa tomondan, ko'pchilik bilan gaplashganda shaxsiy masofa 3 metrdan 4 metrgacha farqlanadi.

Ko'z nigohi

Biror kishining suhbat jarayonida ko'zingizga to'g'ridan to'g'ri qarashi, bu ularning suhbatga

qiziqayotganligi va e'tibor berayotganligini anglatadi. Ammo buning uzoq davom etishi boshqa ma'no kasb etadi, ya'ni taajjub, hayrat va qo'rquv.

Boshqa tomonda, nigohni olib qochish, tez-tez uzoqqa tikilish bu kishining noqulaylik his etayotganini yoki haqiqiy his-tuyg'ularini yashirishga urinayotganligini anglatadi.

Haptika

Teginish orqali muloqot qilish noverbal muloqotning yana bir muhim turi hisoblanadi. Go'daklik va bolalarning erta yoshlik davrida teginishning muhim ahamiyatli ekanligi to'g'risida juda ko'p tadqiqotlar mavjud. Garri Xarlov tomonidan maymunlarda o'tkazilgan tadqiqot teginish va aloqadan mahrum bo'lishi ularning normal rivojlanishiga xalaqit berishini ko'rsatdi. Ular xulq-atvor va munosabatlarga kirishishda nuqsonlarni boshdan kechirishi kuzatildi.

Yozuvchi Julia Vud o'zining «Shaxslararo muloqot: kundalik uchrashuvlar» kitobida teginish ko'pincha status va kuch aloqasi sifatida ishlatiladi, deb yozadi.

Tadqiqotchilar yuqori statusli insonlar boshqalarga qaraganda tezroq va yuqori intensivlikda boshqa odamlarning shaxsiy makoniga kirishga moyil bo'lishlarini aniqladilar. Teginish orqali qanday ma'no yetkazib berish jinslar orasidagi tafovutlarda ham namoyon bo'ladi.

Ayollar g'amxo'rlik, tashvishlanish va emotsional dalda berish ma'nosini yetkazish uchun teginishdan foydalanishadi. O'z navbatida, erkaklar kuch yoki boshqaruvni tasdiqlash uchun teginishdan ayollarga qaraganda ko'proq foydalanishadi.

Tashqi ko'rinish

Biz tanlagan rang, kiyim, soch turmagi va tashqi ko'rinishga ta'sir etuvchi boshqa omillar ham noverbal aloqa vositasi hisoblanadi. Rang psixologiyasi bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli xil ranglar turlicha kayfiyatlarni uyg'otishi mumkin. Tashqi ko'rinish fiziologik reaksiyalar, biror narsa to'g'risidagi fikr va ularning qanday talqin etilishining o'zgarishiga sababchi bo'lishi mumkin.

Madaniyat qiyofalarning qay tariqa baholanishida ahamiyatli o'ringa ega. G'arb madaniyatida ozg'inlikning qadrlanish ehtimolligi ko'proq bo'lsa, ba'zi Afrika madaniyatida to'lachadan kelganlikka sog'lom va ijtimoiy ahvoli yaxshiroq deb qaraladi.

Artifaktlar

Narsalar va tasvirlardan noverbal tarzda muloqot qilish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan vositadir. Masalan, onlayn forumda o'zingizning shaxsingizni namoyish etish uchun ism yoki rasm tanlashingiz, kim ekanligingiz va sizga yoqadigan narsalar haqida ma'lumot berishingiz mumkin.

Ish jarayonida kiyiladigan rasmiy ish kiyimlari, misol uchun, shifokorlarning oq xalati, militsiya xodimlarining formalari bu insonlarning ish faoliyati to'g'risida bir qarashdayoq ma'lumot beradi.

MUNOZARA

Aloqa-aralashuvda ma'lum axbarotni tinglovchiga yetkazishda tildan tashqari, yelka, qo'l, yuz, bosh, qosh, ko'z, og'iz, ovoznining baland-past tonlari, tananing turli harakatlaridan foydalanamiz. Hatto bu holatlar kitob o'qiyotganimizda ham sodir bo'lishi mumkin. Asar personajlarining xatti-harakatlari, voqelik, syujetning jadalligi bizni iztirob va taajjubga solganda ham, gohida yig'laymiz, kulamiz, qoshimizni chimiramiz, labimizni buramiz va hokazo.

Quyida ana shunday paralingvistik vositalarning badiiy tasvirda verbal vositalar orqali ifodalanishini ko'rib chiqamiz.

Birgina tabassum qilish yoki qovoq solish bilan qanchadan qancha ma'lumot yetkazib berilishi mumkin. Shuningdek, tabassum orqali ijobiy va salbiy ekspressivlik yuzaga chiqariladi.

«Aravakash yumshoqqina kulimsiradi. Yosh yigitning bu shirin tabassumini oy yorug'ida alayna ko'ra olgan yosh qiz qizarib, teskari qaradi...» (Cho'lpon. «Kecha va kunduz», 25-bet)

«Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko'z qirini tashladi». (A.Qodiriy. «O'tgan kunlar»).

Yuqoridagi misollarni o'zaro taqqoslar ekanmiz, 1-gapdagi «shirin tabassum» hamda 2-gapdagi «istehzoli tabassum» birikmalari ijobiy va salbiy ma'nolarni ifodalab, matn mazmuniga qo'shimcha ta'sirchanlik yuklash maqsadida qo'llanilgan. Shu bilan birga, turli ko'rinishdagi matnlarni tahlilga tortar ekanmiz, tabassumning metaforik birikma tarzida qo'llanilishiga ham guvoh bo'lamiz.

«Juda yomon bolalar emas ekan, odamgarchiligi ham chakki emasga o'xshaydi, degan fikr o'tdi ko'nglimdan, nazarimda, ukalarim ham shu xususda o'ylashgan bo'lsa kerak, yuzlariga qizillik yugurib, tabassum guli ochilgandek bo'ldi». (X.To'xtaboyev. «Besh bolali yigitcha», 94-bet).

Yozuvchining mahoratini qarangki, birgina tabassumni o'ziga xos chiroyli o'xshatish bilan ifodalagan.

«Anvar o'z ixtiyoricha chuqur yonig'a o'lturdi va xanjarini yanib kelgan jallodga qo'li bilan «ozg'ina to'xtang» ishoratini qilib, Abdurahmon tomong'a kuldi: – Mening holimni ko'ringiz, domla, – dedi anvar kulgan yuzda, – qo'lim bog'langan, ustimda xanjar yaltiraydi. Lekin men kulaman... (Abdulla Qodiriy. «Mehrobdan chayon», 313-bet)

Bu o'rinda qahramon kulgisida istehzo, alam ramzi bor. Kinoyaga yo'g'rilgan bu gap zahirida Anvarning jasorati, o'limga tik boqishi, sof vijdon bilan mag'lub bo'layotgani nihoyatda chiroyli dalillangan.

Ma'lum bo'lishicha, ko'plab olimlar tabassumning boshqa insonlarga ta'sirini tekshirib ko'rib, u o'zida kuchli ma'lumotlarni jamlashini hamda insonning botiniy aqliga yuqori ta'sir ko'rsata olishini aniqlashgan ekan. Har bir insonning o'ziga xos tabassumi bo'ladi, boshqa bironing tabassumi bironnikiga o'xshamaydi. Bunda kishining ruhiy holati, yashayotgan muhiti va hatto tabiati yashiringan bo'ladi.

XULOSA

Verbal aloqaga bog'liq bo'lmagan barcha birliklar so'zlashuv jarayonining yordamchi vositalari sanaladi. Nutqiy muloqotni shu ikki omil: verbal va nonverbal vositalarning mujassamlashuvi asosida vujudga keladigan yaxlitlik sifatida talqin qilish maqsadga muvofiq. Badiiy asar yozuvchisi til birliklaridan foydalanishda har bir asar mavzusidan kelib chiqib, o'zi tasvirlaydigan badiiy personajlarning imo-ishoralari, tana harakatlarini o'qirman ko'z o'ngida aniq gavdalandiradigan leksemalar, stilistik vositalarni qo'llashga intiladi va badiiy personaj hissiyotlarining o'ziga xos xususiyatlarini ochib berishni uddalashi talab etiladi. Bundan tashqari, badiiy asarlarda qahramon hissiyotlariga mos keluvchi til birliklarining qo'llanishi asar tilining jozibador, ta'sirchan bo'lishini ta'minlaydi. Kinetik paralingvistik vositalar nutqning tabiiyligi hamda so'zlovchining ijtimoiy va shaxsiy holatini aks ettirishda eng faol tilga yondosh birlik ekanligi tadqiqot natijasida ma'lum bo'lgan. Tana a'zolarining muloqot jarayonidagi ishtirokida qo'l harakatlarining nisbati 20 %, barmoqlar harakati esa 13 %ni ko'rsatib, o'zbekona nutqda eng faol nonverbal birlik ekanligi aniqlandi.

Adabiyotlar:



1. Saidxonov M. *Aloqa-aralashuv va imo-ishoralari*. – T.: Fan, 2008.
2. Nurmonov A. *O'zbek paralingvistik vositalari // Tanlangan asarlar. I jild*. – T.: Akademnashr, 2012.
3. Лотман Ю. *Семиотика кино и проблемы киноэстетики*. – Таллин: Ээсти Раамат, 1973.
4. Крейдлин Г. *Невербальная семиотика: Язык тела и естественный язык*. – М.: Новое литературное обозрение, 2002.
5. Krauss R.M. *«Lexical Gestures and Lexical Access: A Process Model»*. Book: *Language and Gesture* by D. McNeill (Ed.) New York: Cambridge University Press, 2001. pp.
6. Maxsudova M. *Muloqot psixologiyasi*. – T.: «Turon-Iqbol», 2006.